



FORMAL VA NOFORMAL TASHKILOTLAR

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida sotsiologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi Maxsimova Madinabonu Maxtum qizi
maxsimovamadina@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashkilot haqida umumiy tushunchalar va formal noformal tashkilotlar haqida sotsiolog olimlar qarashlari haqida keltirib o'tilgan. Formal tashkilotlar qanday tashkil etilishi, noformal tashkilotlar qanday tashkil topishi va undagi asosiy farqlar nimalardan iborat ekanligi haqida.

Kalit so'zlar. Formal, noformal, tashkilot, nazariya, Maks Veber, Anri Fayol, Elton Meyo, Xotom tajribasi, byurokratiya, Teylor.

Kirish. "Tashkilot" so'zi arab tilidagi tashkīl — "tuzish", "shakllantirish", "tartibga solish" so'zidan olingan. Dastlab bu atama boshqaruv tizimlarida yoki davlat idoralarida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik har qanday tuzilma yoki uyushma ma'nosida keng qo'llanila boshlagan.¹

Tashkilot — bu biror maqsadga erishish uchun birlashgan shaxslar yoki resurslar yig'indisidir. Tashkilotlar inson faoliyatining turli sohalarida — iqtisodiyot, ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqalarda muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Ular huquqiy shaxs maqomiga ega yoki ega bo'lmasligi mumkin hamda turli tashkiliy-huquqiy shakllarda mavjud bo'ladi.²

¹ "O'zbek tilining izohli lug'ati". 5 jildlik. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Tashkilot#cite_note-3



Tashkilot tushunchasi haqida ko‘plab olimlarning nazariyalari va qarashlari mavjud. Ular birgina tashkilot tushunchasiga turli tomonlardan turlicha qarashda izohlab ketgan. Tashkilotlar formal ya’ni qat’iy tartib va qoidalarga asoslangan yoki noformal formal tashkilotlar ichida insonlarning shaxsiy o‘zaro aloqalari, umumiy qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan guruhdir.

Metod va materiallar. Formal va noformal tashkilotlarning asosiy farqlari ularning qanday va nima maqsadda vujudga kelishida. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, Maks Veber, Anri Fayol, Frederik Teylor kabi sotsiologlar formal tashkilot tushunchasi va boshqaruvi haqida keltirib o‘tgan. Tashkilotlar qat’iy tartib va qoidalarga asoslanib ish yuritishi haqida Maks Veberning byurokratiya nazariyasida ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Byurokratiyani zamonaviy davlat boshqaruvining eng samarali va hatto ajralmas shakli sifatida tan olgan holda, Veber uni fuqarolarning shaxsiy erkinligiga tahdid sifatida ham ko‘rdi.³

Byurokratik tashkilotning ustunligini belgilovchi hal qiluvchi argument uning boshqa har qanday tashkilot shakliga nisbatan sof texnik ustunligidir.⁴

Bundan tashqari Anri Fayol boshqaruv faoliyatini boshqa faoliyat turlaridan ajratgan holda uni tashkil qilishning umumiy qoidalarini ishlab chiqdi, birinchilardan bo‘lib boshqaruv nazariyasining shakllanishiga asos soldi.⁵ Frederik Teylor ham tashkilotdagi har bir ish jarayonini ilmiy tahlil qilish orqali ish unumdorligini oshirish mumkinligini keltirib o‘tgan.

Formal tashkilot ichida insonlar orasida o‘zaro munosabatlar, umumiy maqsadlar natijasida kelib chiquvchi noformal tashkilotlar haqida so‘z borganida Xotorn tajribalarini esga olish mumkin. Xotorn tajribasi shuni ko‘rsatdiki, xodimlarning unumdorligi faqat jismoniy mehnat sharoitlari va ularga to‘lanadigan

³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D0%B5%D0%B1%D0%B5%D1%80,%D0%9C%D0%B0%D0%BA%D1%81>

⁴ *Liesbet Hooghe*. Yevropa Komissiyasi va Yevropa integratsiyasi : [boshqaruv tasvirlari](#) . - [Kembrij universiteti nashriyoti](#) , 2001. - P. 40. - ISBN 978-0-521-00143-4 .

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Fayol_Anri



pul ish haqi funksiyasi emas. Xodimlarning unumdorligi ko‘p jihatdan xodimlarning ish holatidan qoniqishlariga bog‘liq. Mayoning fikri shundan iborat ediki, mantiqiy omillar samaradorlikni aniqlashda hissiy omillarga qaraganda ancha kam ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xodimlarning xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi barcha insoniy omillardan eng kuchlisi ishchining ijtimoiy guruhlardagi ishtirokidan kelib chiqadigan omillar edi.⁶

Mulohaza va natijalar. Yuqoridagi nazariya va ma'lumotlarga asoslanib Maks Veberning byurokatiya nazariyasi va Elton Meyoning nazariyasi bir- birini inkor etmaydi balki to'ldirib turadi. Chunki tashkilotlar faqatgina formal yoki faqatgina noformal ko'rinishda bo'lmaydi, balki ikki ko'rinish ham bir tashkilot ko'rinishida aks etishi samaraliroq bo'ladi. Formal tashkilotda doimiy holatda qat'iy qonun va me'yorlarga asosan ish yuritilishi guruhda ishga bo'lgan ijodkorlikni, jamoa bo'lib o'zaro muzokaralarni kamaytirishi mumkin. Buning natijasida ishning samaradorligi pasayadi. Yana shuni ham aytish mumkinki, faqatgina noformal tashkilot asosida ya'ni ba'zida nazoratsiz tashkilot ichida tartibsizlik holatlari ham yuzaga kelishi mumkin. Bundan ko'rinish turibiki, formal tashkilotlar ham noformal tashkilotlar ham o'z ahamiyatiga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, formal va noformal ko'rinishlarni bir tashkilot ko'rinishida mujassam qilib, qat'iy qonun va me'yorlarga o'z vaqtida amal qilgan holda, xodimlar o'rtasidagi noformal aloqalarni ham qo'llab-quvvatlash ish samaradorligida yaxshi natija ko'rsatishi mumkin. Chunki noformal aloqalar vaqtida xodimlar o'rtasida o'zaro fikr almashish va bilim ko'nikmalarga ega bo'lish ishdagi unumdorlikka alohida ta'sir ko'rsatadi.

⁶ "Sanoat sotsiologiyasining vujudga kelishi. Xotom tajribasi" Norqulov B.G., Mamatova G.M; 1999-b



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 5 jildlik. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008
2. *Liesbet Hooghe*. Yevropa Komissiyasi va Yevropa integratsiyasi : [boshqaruv tasvirlari](#) . - [Kembrij universiteti nashriyoti](#) , 2001. - P. 40. - [ISBN 978-0-521-00143-4](#) .
3. “Sanoat sotsiologiyasining vujudga kelishi. Xotorn tajribasi” Norqulov B.G‘, Mamatova G.M; 1999-b

Axborot manbalari

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tashkilot#cite_note-3
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D0%B5%D0%B1%D0%B5%D1%80,%D0%9C%D0%B0%D0%BA%D1%81>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fayol_Anri